

Pedagogical Principles of Improving Landscape Science Teaching Methodology in Higher Education Institutions

Shirinova Muqaddas Shavkat kizi
Navoi State Pedagogical Institute is a Geography Teacher

Abstract

This article presents comments on the pedagogical foundations of improving the teaching methodology of landscape science in higher educational institutions. Opinions on the teaching process in higher education institutions were discussed.

Keywords: landscape, methodology, interactive methods, pedagogical principles, case-study method, brainstorming method.

Introduction

Oliy ta'lim tizimida landshaftshunostlik fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning sifat va samaradorlik ko'rsatkichlari ta'lim va tarbiyaviy jarayonining asosini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Bu borada bajarilayotgan ishlarning negizida yangi innovasion pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Bu borada quyidagi fikrlarni tasdiqlaydi, "Uzluksiz ta'lim – davlat ta'lim standartlari, umumta'lim maktablarida, umumkasbiy va maxsus dasturlarni amalga oshirish, ta'limning maqsadli ko'rsatmalarini bajarish doirasida boy madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy an'analarga, fan, texnika va texnologiyalarning ilg'or yutuqlariga asoslangan ham o'quv, ham o'qishdan tashqari ishlarda pedagogik ta'sir ko'rsatishning butun kompleksidan foydalangan holda, komil insonni, shaxsni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat olib boradi!"

Geografiya fanining landshaftshunostlik bo'limini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda doimiy ravishda kartografik usulni o'rni ko'rsatilib bordi. Pedagogik texnologiyalarda bugungi kunda keng qo'llanilayotgan —Keys-stadi, —Muammoli, —Klaster, —BBB, —Insert, —Kamalak kabilari ishlanmalarda qo'llanilishi ko'rsatilib berilmoqda.

Deyarli barcha mavzularga blis-surov, keys-stadi, klaster texnologiyalari qo'llanildi va ularning samaradorligi yuqori ekanligi belgilandi.

Bugungi kunda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, ta'limda innovasion texnologiyalarni keng joriy etishga yo'naltirilgan ko'plab innovasiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovasiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilaётgan innovasion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda geografiya darslarida o'quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta'lim jaraenining samaradorigini oshiruvchi ta'lim texnologiyalar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

¹ Каримов И.А. Юксақ маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.-176 б.



Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar, boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jaraenida qo'llashga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda.

Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

- a) geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi;
- b) geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umuman va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash;
- v) ta'lim va tarbiyaning birligi;
- g) geografik madaniyatni shakllantirish.

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat. Umumiy va xususiy geografiya o'qitish metodikasi. Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tadqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi.

1-topshiriq. "O'zing angla" mashqi. Quyidagi atamalarni sharhlang.

Litosfera	
Astenosfera	
Relyef	

2-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

Quruqlikdagi relyef shakllarini yozing (dengiz sathiga nisbatan).	
Cho'kmalar yoki botiqlar	
Pasttekisliklar	
Qirlar	
Past tog'lar	
O'rtacha tog'lar	1000 m dan 2000 m gacha bo'lgan tog'lar
O'rtacha baland tog'lar	
Baland tog'lar	

3-topshiriq. "Bilasizmi?" mashqi.



<i>Okeanlar tubining relyef shakllarini yozing.</i>	
	<i>200 m chuqurlikkacha bo'lgan joylar</i>
	<i>200 m dan 3000 m chuqurlikkacha bo'lgan joylar</i>
	<i>3000 m dan 6000 m chuqurlikkacha bo'lgan joylar</i>
	<i>6000 m dan chuqur bo'lgan joylar</i>

Interfaol metodlar bo'yicha o'qish jaraenini tashkil etilganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni. Vazifaning mazmuni o'qitishning an'anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq bo'lishi lozim. Masalan, guruhga darslikdagi ma'lum bir paragraf konspektini olish vazifa sifatida berilishi maqsadiga muvofiq emas, chunki har bir o'quvchi bu ishni o'zi, mustaqil bajarishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, muammoni nostandart qo'yilishigina, o'quvchilarni bir-biridan erdam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa, guruhning umumiy fikrini shakllantirishga undaydi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Muammoli vaziyat metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni baen qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o'qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash rang-barang baholash usullaridan foydalanish ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

Мужиза, [Бс 02.04.23 15:54]

1. Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577
2. Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers' Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – №3. –2020. – P. 123 –16. ISSN 2199 –7977.
3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)
4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)

